

## BADIIY ASARDA YOZUVCHINING O‘Z QAHRAMONLARIGA BO‘LGAN MUNOSABATI

*Mardonova Lobar Umaraliyevna*

*Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi  
filologiya fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori (PhD)*

**Annotatsiya:** Bugun mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ulug‘ g‘oya uchun sa‘y-harakat qilinmoqda. Bu erishuvimiz mumkin bo‘lgan amal, ammo bir jihatdan buyuk orzu ham. Zero, Uchinchi Renessans voqeligimizda namoyon bo‘lishi, yuz ko‘rsatishi uchun faqat iqtisodiyot sohasida jiddiy taraqqiyotgina emas, balki ma‘naviyat, ilm-fan, san‘at va adabiyot jabhasida ham yuksak saviyaga ko‘tarilishimiz talab etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Renessans, hayrat, g‘ayrat-shijoat, aql-zakovat, havas, hissiy munobatlar, tuyg‘ular, badiiy obraz.

**Аннотация:** Сегодня в нашей стране предпринимаются усилия для великой идеи создания основ Третьего Возрождения. Это действие, которого мы можем достичь, но в некотором смысле это также великая мечта. Ведь для того, чтобы Третий Ренессанс появился в нашей действительности, необходимо не только добиться серьезных успехов в области экономики, но и подняться на высокую ступень в области духовности, науки, искусства и литературы.

**Ключевые слова:** Ренессанс, восхищение, энтузиазм, интеллект, вожделение, эмоциональные установки, чувства, художественный образ.

**Abstract:** Today, efforts are being made in our country for the great idea of creating the foundations of the Third Renaissance. This is an action that we can achieve, but in a way it is also a great dream. After all, in order for the Third Renaissance to appear in our reality, it is necessary not only to make serious progress in the field of economy, but also to rise to a high level in the field of spirituality, science, art and literature.

**Key words:** Renaissance, admiration, enthusiasm, intelligence, lust, emotional attitudes, feelings, artistic image

Adabiyotshunoslik lug‘atida « asardagi obrazlarda adibning hissiy munosabati ham o‘z aksini topadi. Hissiy munosabat badiiy konsepsiyani shakllantirishda, asar mazmunini o‘quvchiga etkazilishida muhim ahamiyat kasb etadi»,– deyilgan<sup>1</sup>. Haqiqatan ham, badiiy asarda yozuvchining o‘z qahramonlariga bo‘lgan munosabati

<sup>1</sup> Куронов Д, Мамажонов З, Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Т.: “Akademnashr”, 2010. 45-б.

bir xillik kasb etmaydi. Masalan, «Ulug‘ saltanat» tetralogiyasida Amir Temurga nisbatan hayrat, Saroymulxonim, Xonzodabegimga nisbatan havas, Mahmud Sultonning g‘ayrat-shijoat, aql-zakovatiga ichki ehtirom tuyg‘usi voqealar rivoji davomida boshqa bir tuyg‘ular bilan almashadi. Xarakter mohiyati o‘zgargan sari hissiy munobatlar o‘zgaradi. Saroymulxonimning farzandsizligi, Xonzodabegimning dastlab sevgilisi Jahongir Mirzodan, keyin farzandlaridan ajralib qolishi, Mironshohning ichkilik, aysh-ishrat, insofsizlikka berilishini ko‘rgan kitobxon qalbidagi hislar o‘rni almashib boradi. Muhabbat o‘rnini achinish va hamdardlik, Mironshoh va Xalil Sultonning insofsizlik, oqibatsizligidan nafrat tug‘ila boshlaydi.

Bir qarashda tarixiy mavzuda badiiy asar yaratish birmuncha qulaylikliklarga egadek tuyuladi. Tarixiy shaxs, kechmishda bo‘lib o‘tgan voqea-hodisalarni o‘rganish va badiiy jihatdan qayta ishlashning o‘zi yetarlidек ko‘rinadi. Biroq ijodkor chin san‘at asari yaratishi uchun o‘sha qahramonlar hayotini yashab berishi, ular qalbidagi evrilishlarni his qilishi, voqelar yuz berayotgan tarixiy davr, ijtimoiy muhitda ruhan yashashi lozim. Oybekning «Navoiy» romani yaratilishi bilan bog‘liq xotiralarini o‘qirkanmiz, bunga yana bir karra amin bo‘lamiz. Oybek roman yaratilgandan so‘ng oradan bir necha yil o‘tgach Hirotga borganida o‘z asarida tasvirlangan Hazrat Navoiy yashagan ko‘chalar, yo‘llar, binolarni ko‘rib cheksiz hayratlanadi, negaki? u ana shularning hammasini tasavvur qilgan, xayolan shu ko‘chalardan o‘tgan edi. Yozuvchining taxayyul va tafakkur olami, iste‘dod va mehnat – barchasi birlashsa, asl san‘at namunasi paydo bo‘ladi. Adabiyotshunos olim A.Xolmurodov tarixiy asar yozishda bir qancha «qulaylik»lar mavjudligini ta‘kidlab, «lekin bu «qulaylik»ning xavfli tomoni ham bor: adib tarixiy voqealarning mohiyatini ocha bilmasligi, o‘tmishda o‘tgan shaxsning ichki olamini yetarli darajada yoritma olmasligi mumkin. Natijada tarixiy voqealarning quruq bayoni yuzaga kelib, unda ishtirok etuvchi shaxslar badiiy obraz darajasiga ko‘tarila olmasligi mumkin»<sup>2</sup>, degan mulohazani bayon qiladi.

Go‘zallik san‘atning zaruriy sharti ekanligi, go‘zalliksiz san‘atning yo‘qligi va bo‘lishi mumkin emasligi aksiomadir. Ammo san‘at, xususan, bizning zamonamizda birgina go‘zallikning o‘zi bilan uzoqqa borolmaydi. Go‘zallik g‘oyaning har qanday hissiy ifodasi uchun zaruriy shartidir»<sup>3</sup>

«Tarixiy adabiyotning bosh vazifasi - deb yozadi taniqli rus shoiri D.Samoylov, – bu hayot konsepsiyasi, bu yashash tarzi, bu qay bir holatlarda inson o‘zini qanday tutishi haqidagi ta‘limdir. Agar butun tarixiy adabiyotni yaxlit olib qarasa, ko‘ramizki, unda bizning kundalik amaliy ideallarimizga qaraganda vaqt jihatidan umrboqiyroq ideal haqida gap boradi»<sup>4</sup>.

<sup>2</sup> Холмуродов А.Қиссада бадий образ яратиш маҳорати. Т.: «Фан», 2006. 99-б.

<sup>3</sup> Белинский В.Г. Танланган асарлар. –Т. Ўздавнашр, 1955. 228-б.

<sup>4</sup> Журн. Вопросы литературы. – 1987. - № 6. - С.148-149.

Tarixiy romanchilik adabiyotimizdagi ilk yaratilardan «O‘tgan kunlar» va «Mehrobdan chayon» romanlaridan boshlanadi. Bu an’anani Cho‘lpon «Kecha va kunduz» romani, Oybek «Navoiy» romani, M.Osim Shiroq, Tumaris, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Mashrab haqidagi qissa va hikoyalari, Maqsud SHayxzoda «Jaloliddin Manguberdi» va «Mirzo Ulug‘bek», Hamid Olimjon «Muqanna» dramalari bilan davom ettirdilar, vatan va xalqning shonli o‘tmishini, uning daho farzandlarining ibratli hayot yo‘li, hayratlanarli tarixini badiiy aks ettirdilar.

Mirzakalon Ismoiliy “Farg‘ona tong otguncha”, Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi”, «Ko‘hna dunyo», Mirmuhsinning «Me‘mor», Pirmuqol Qodirovning «Yulduzli tunlar», «Xumoyun va Akbar», Muhammad Alining «Sarbadorlar», Maqsud Qorievning «Spitamen», «Ibn Sino», «Mahmud G‘aznaviy», Erkin Samandarning Jaloliddin, Abulg‘ozi Bahodirxon, Ogahiy haqidagi, Samar Nurovning «Qora tong», Asad Dilmurodning «Mahmud Toro- biy», «Pahlavon Muhammad» singari romanlari, Hakim Sattoriyning «Hazrat Sohibkiron», «Sohibqiron abadiyati». «Mahak toshi» publisistik asarlari millatni uyg‘otish, o‘zligini tanitish yo‘lidagi fidoyilik namunasi sifatida yuzaga chiqdi. Vatan tarixini, o‘zining kelib chiqishi, ota-bobolarining kimligini bilmay turib, na bugun to‘g‘ri yo‘l tanlab bo‘lishi, na yorug‘ kelajak, avlodlar erkin, ozod yashaydigan farovon jamiyat qurish mumkinligini chuqur anglagan ijodkorlarimiz tarixiy mavzuga xaloskor kuch sifatida qarashdi.

Bugun mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ulug‘ g‘oya uchun sa’y-harakat qilinmoqda. Bu erishuvimiz mumkin bo‘lgan amal, ammo bir jihatdan buyuk orzu ham. Zero, Uchinchi Renessans voqeligimizda namoyon bo‘lishi, yuz ko‘rsatishi uchun faqat iqtisodiyot sohasida jiddiy taraqqiyotgina emas, balki ma’naviyat, ilm-fan, san’at va adabiyot jabhasida ham yuksak saviyaga ko‘tarilishimiz talab etiladi. O‘tgan o‘ttiz yil ichida Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti vujudga keldi. She’riyat va nasr o‘z zalvorli yo‘lida davom etdi. Dramaturgiya bir qadar oqsagan esa-da, uning yaxshi namunalari yo‘q emas. Lekin muayyan yutuqlarimizni tan olgan holda aytish mumkinki, shonli tarix va madaniyatga ega millat va davlatga munosib asarlar yaratish masalasi hali ham dolzarb. Albatta, bunday asarlar yaratish o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. Ma’lumki, bundan o‘ttiz yil avval mustabid tuzum emirilgach, uning inson dunyoqarashi haqidagi aqidalariga ham putur etdi. Lekin mustabid tuzum qanchalik jon kuydirmasin, ming shukrki, xalqimizni yoppasiga ateist qila olmadi. Bunga, birinchi galda, muqaddas islom dinimizning e’tiqodiy kuch-quvvati sababdir. Asosiy qonunimizda din davlatdan ajratilgan, qaysi dinga e’tiqod qilish erkinligi kafolatlangan. Bu – qonuniy taraf. Amalda islom dini mamlakatimiz va xalqimiz urf-odati, turish-turmushida katta o‘rin tutadi.

BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasida Prezidentimiz muqaddas dinimizni turli bo‘htonlardan keskin himoya qilgani, bu jahon jamoatchiligida katta qiziqish va qoniqish uyg‘otgani hamon yodimizda. Buning ustiga Vatanimizda islom dini, islom

tamadduniga beqiyos hissa qo‘shgan vatandosh allomalarimiz ijodiga katta e‘tibor qaratilayotgani, Islom sivilizasiya markazi kabi nufuzli ilmiy markazlar tuzilgani dinimizga davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan yuksak ehtiromning go‘zal isbotidir. Hozirgi G‘arb jamiyatida ro‘y berayotgan axloqiy buzilishlar fonida badiiy adabiyotda go‘zallik qonuniyatlari bilan bir qatorda, balki ulardan ustun darajada, axloqiy qonuniyatlari, odob-axloq masalasi etakchi mavqega chiqdi. Boshqacha aytganda, hozirgi kunda badiiy adabiyot, umuman san‘at uchun estetikadan ko‘ra etika muhimroqdir. Aslida-ku, go‘zallik va axloq egizak tushunchalardir. F.M.Dostoevskiyning turli-tuman talqin qilingan mashhur “Dunyoni go‘zallik qutqaradi” degan gapini sal o‘zgartirib, aniqlashtirib “Dunyoni go‘zal axloq qutqaradi” degan bo‘lardik. Uzoq tarixdan ma‘lumki, ummon qa‘riga cho‘kkan Lemuriya va Atlantida kabi yuksak taraqqiyotga erishgan tamaddunlar ayni axloqiy buzilish tufayli Yaratgan g‘azabiga uchrab mahv bo‘lgan edi. Bizning tamaddun axloqiy poklik, ma‘naviy qadriyatlarni avaylab saqlashi, avloddan avlodga pok meros qilib qoldirishi kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Куронов Д, Мамажонов З, Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Т.: “Akademnashr”, 2010. 45-б.
2. Холмуродов А. Қиссада бадий образ яратиш маҳорати. Т.: «Фан», 2006. 99-б.
3. Белинский В.Г. Танланган асарлар. –Т. Ўздавнашр, 1955. 228-б.
4. Журн. Вопросы литературы. – 1987. - № 6. - С.148-149.